

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY HUUJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

SPECIFIC ASPECTS OF THE PARTICIPATION OF CITIZENS' SELF-GOVERNING BODIES IN PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AGREEMENTS

Kilichev Khayrulla Mamatovich,

Head of the Department of Civil Law Disciplines,

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Abstract. This scholarly article analyzes the application of the public-private partnership mechanism in the construction and reconstruction of mahalla citizens' assembly buildings in Uzbekistan from the perspective of civil law theory. It also highlights the institutional and financial mechanisms of public-private partnerships in the development of mahalla infrastructure. Furthermore, the study provides a comparative analysis of three main approaches in legal doctrine regarding the legal nature of a public-private partnership agreement: the administrative-legal, hybrid, and private-legal concepts.

Keywords: public-private partnership, legal nature of a public-private partnership agreement, civil law institution, public law elements, principle of freedom of contract, principle of equality of the parties, subject of the contract, institutional mechanisms.

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qilichev Xayrulla Mamatovich,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasini boshlig'i,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: info@akadmvd.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmining mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini qurish va rekonstruksiya qilish jarayonida qo'llanilishi fuqarolik huquqi nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, mahalla infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikning institutsional va moliyaviy mexanizmlari yoritilgan. Bundan tashqari tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik shartnomasining huquqiy tabiati yuzasidan ilmiy doktrinada mavjud bo'lgan uch asosiy yondashuv — ma'muriy-huquqiy, gibril va xususiy-huquqiy konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, davlat-xususiy sheriklik shartnomasining huquqiy tabiati, fuqarolik-huquqiy institut, ommaviy-huquqiy elementlar, shartnoma erkinligi prinsipi, taraflarning tengligi prinsipi, shartnoma predmeti, institutsional mexanizmlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N33>

Kirish. Yangi O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi infratuzilma obyektlarini qurish va rivojlantirishning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-402-son qarori mahallalarni isloh qilish jarayonida yangi bosqichni belgilab berdi. Qarorning 11-bandiga ko'ra, O'zbekiston mahallalari uyushmasiga uch yil muddatda namunaviy mahalla binolarini qurish va topshirish vazifasi yuklatilgan. Bu jarayon moliyalashtirishning an'anaviy davlat budjetidan tashqari turli manbalarini, jumladan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llashni nazarda tutadi. Shuning uchun ushbu masalani fuqarolik huquqi va davlat-xususiy sheriklik nazariyasi nuqtai nazaridan atroflicha yoritish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu normativ hujjatlarning qabul qilinishida esa, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-son "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga uzviy bog'liqdir. Ushbu qonun O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligini huquqiy asosda rivojlantirishning ilk qadamlaridan biri bo'lgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021 — 2023-yillarda davlat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 26-bandida davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish belgilangan. Yana bir hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tugatilgan holda, uning vazifalari va funksiyalari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'tkazilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son hamda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son farmonlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni kompleks tizimlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktyabrda "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ 720-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror prezident investitsion va huquqiy islohotlarga asos solgan hujjatlarning amaldagi reja va bajarilishini ta'minlamoqda. Turli miqyosdagi loyihalar uchun aniq realizatsiya yo'l xaritalarini va moliyaviy kafolat mexanizmlarini mustahkamlab kelmoqda. Institutsional jihatdan — loyihalar monitoringi, reyestrini yuritish, moliyalashtirish va tender jarayonlarini tizimli belgilangan tartibda tashkil etish voqealigiga erishilmoqda. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi 2020-2025-yil davomida 182 ta mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binolarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida yangitdan qurilgan bo'lsa, 230 ta mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binolari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish va qayta qurish bo'yicha tender e'lon qilingan [1].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqish aytish mumkinki, Mahalla uyushmasi va xususiy sektor o'rtasida mahalla fuqarolar yig'inlarining binolarini qayta qurish yoki rekonstruksiya qilish yuzasida davlat xususiy sheriklik bitimini tuzish amaliyoti kengayib bormoqda. Shu boisdan davlat-xususiy sheriklik bitimining huquqiy tabiati haqidagi nazariyalarni tahlil etish o'rinli sanaladi.

Muhokama. Zamonaviy tadqiqotlarda davlat-xususiy sheriklik sohasida sheriklik to'g'risidagi shartnomaning huquqiy tabiati bahsliligicha qolmoqda. Hozirgi vaqtda bu masala, go'yoki, qonunchilik darajasida hal etilgandek tuyulsa-da, mazkur mavzudagi ilmiy bahslar

to'xtamadi, balki yangi turtki oldi. Masalan, A.V.Belitskaya davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning fuqarolik-huquqiy tabiatiga ishora qilinishi qonun chiqaruvchining kamchiligi, deb hisoblaydi. Chunki mazkur shartnomada ommaviy-huquqiy elementlar ham ko'zga tashlanadi [2]. Bundan farqli o'laroq, D.V. Kachkin va R.R. Repin esa "davlat-xususiy sheriklik, munitsipal-xususiy sheriklikka oid qonun hujjatlarida bayon etilgan qoidalarni qo'llab-quvvatlaydilar [3]. A.V.Belitskaya va D.V.Kachkin va R.R.Repin pozitsiyalari o'rtasidagi farq huquqiy tabiat masalasining ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi. Belitskaya shartnomadagi davlatning ustuvor rolini, ijtimoiy vazifalarni va ommaviy-huquqiy xususiyatni birinchi o'ringa qo'ysa, Kachkin va Repin esa qonunchilikdagi huquqiy aniqlik va fuqarolik-huquqiy mohiyatni himoya qiladi.

Shu asosda quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin:

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasi faqat fuqarolik-huquqiy yoki faqat ommaviy-huquqiy deb belgilanishi uning tub mohiyatini to'liq aks ettirmaydi.

Uning tabiati gibriddir, ya'ni xususiy va ommaviy huquq normalari uyg'unlashgan qo'shma institut sifatida qaralishi lozim.

Qonunchilikda shartnomani fuqarolik-huquqiy deb belgilash amaliyotda barqarorlik va huquqiy aniqlikni ta'minlasa-da, doktrinal tahlilda uning ommaviy elementlarini inkor etmaslik zarur.

Ma'lumki, doktrinal darajada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun tuziladigan investitsiyaviy shartnomalarning huquqiy tabiatini belgilashda uchta asosiy yondashuv shakllangan [4]. Birinchi yondashuvga ko'ra, bunday shartnomaviy konstruksiyalar ma'muriy shartnomaning bir turi sifatida qaraladi. Masalan, S.V. Shoroxov konsessiya shartnomasi misolida uning quyidagi ommaviy-huquqiy belgilari mavjudligini ta'kidlaydi:

shartnoma maqomi jihatidan teng bo'lmagan subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni rasmiylashtiradi;

shartnoma obyektlari ommaviy mulk hisoblanadi;

konsessiya shartnomasida konsedentga (ommaviy sherikka) muayyan bir tomonlama huquqlar beriladi;

tarafalar shartnomaning namunaviy shakllaridan foydalanishga majbur [5].

Shu munosabat bilan S.A. Sosna ta'kidlaydiki, konsessiya shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomaga yaqin kelishuv sifatida ko'rilishi mumkin, biroq aynan bir xil emas, chunki u albatta ommaviy-huquqiy belgilariga ega [6]. Shunday qilib, V.E. Sazonov xulosa qiladiki, Davlat-xususiy sheriklik sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar ko'proq ma'muriy huquqning obyektga oid tartibga solish sohasiga kiradi [7]. Demak, ushbu mualliflar guruhi fikriga ko'ra, keltirilgan belgilari mavjudligi davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim hamda boshqa shartnomaviy shakllarni ma'muriy shartnoma sifatida tan olish uchun yetarlidir. D.A.Samovolovning fikriga ko'ra, ommaviy sherikka muayyan bir tomonlama huquqlarni berilishini ham davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning ma'muriy-huquqiy tabiatini isbotlovchi yetarli dalil sifatida qarash mumkin emas [8]. Chunki huquq va majburiyatlarning nomutanosib taqsimlanishi ko'plab fuqarolik-huquqiy shartnomalarga ham xos. Bu xulosa davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning obyekti davlat yoki munitsipal mulk ekani haqidagi fikrga ham tegishli. Chunki fuqarolik qonunchiligida turli shartnomaviy konstruksiyalar mavjud bo'lib, ular ommaviy mulkning xususiy qo'llarga o'tishi yoki uni vaqtincha foydalanish va egalikka topshirilishini nazarda tutadi. Shu bois, bu ma'noda Davlat-xususiy sheriklik doirasida tuziladigan kelishuvlar noyob hisoblanmaydi. Keltirilgan dalillar

asosli tuyuladi. Darhaqiqat, davlat-xususiy sheriklikning shartnomaviy shakllari muayyan darajada ommaviy belgilarga ega, bu esa institutning o'ziga xos xususiyati bilan izohlanadi. Biroq bu ommaviy belgilarning yuzaga kelayotgan huquqiy munosabatlarning mohiyatiga ta'siri unchalik katta emas.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiatini tushunishda ikkinchi yondashuv o'tish bosqichi hisoblanadi. Uning tarafdorlari bunday shartnomalarni aniq holda na ommaviy-huquqiy, na xususiy-huquqiy deb tan olish mumkin, deb hisoblaydilar [9]. Biroq bu pozitsiya yetarli darajada asoslanmagan. Chunki to'g'ri hisoblanishicha, "ommaviy-xususiy huquqiy munosabatlar" degan narsa mavjud emas – ular yo xususiy, yo ommaviy bo'lishi mumkin [10]. Albatta, har qanday huquqiy kategoriya turli manbalardan kelib chiqqan elementlarni o'z ichiga olishi mumkin, biroq ulardan ma'lum qismi doim boshqalardan ustun turadi. Ana shu tarkibiy qismlarni tahlil qilish orqali muayyan hodisaning huquqiy tabiatini belgilash mumkin. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiatini belgilashda uchinchi keng tarqalgan yondashuv ularni xususiy-huquqiy shartnomalar qatoriga kiritishdir. Bu pozitsiya tarafdorlari qatorida V.F. Popondopulo [11], D.V. Kachkin va R.R.Repin [12], D.A. Samovolov [13] va boshqalar bor. Ushbu tadqiqotchilarning fikri eng asosli tuyuladi, chunki ushbu shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiatini ko'rsatib beruvchi aniq belgilari mavjud.

D.N. Gorshunov shu xulosaga keladiki, manfaat "huquq tuzuvchi" kategoriya hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi muayyan yuridik vositalar to'plamini belgilaydi [14]. Davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etish haqida qaror qabul qilayotgan taraflarning motivatsiyasini tahlil qilar ekanmiz, D.N.Gorshunov tomonidan ta'kidlanganidek, manfaat "huquq tuzuvchi" kategoriya hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi muayyan yuridik vositalar to'plamini belgilaydigan asosiy omil ekanini ko'ramiz. Mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini qayta qurish kontekstida ommaviy sherik vazifasini bajaruvchi tuman yoki shahar mahalla tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga faqat o'z infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish uchun budjet mablag'lari yetarli bo'lmaganida murojaat qiladilar, ya'ni ularga tashqaridan moliyaviy yordam zarur bo'ladi. Bu holatda mahalla uyushmalari hokimiyat organi sifatida emas, balki fuqarolik huquqiy munosabatlar subyekti sifatida harakat qiladilar, bu esa munosabatlarning vertikalashuvini va ular orasidagi itoatkorlik munosabatlarini istisno qiladi. Shu sababli, muayyan shartnomaning qaysi huquq sohasiga tegishliligi ishtirokchilarni loyihaga kirishishga undagan motivatsiya bilan belgilanadi. Taraflar ijtimoiy manfaatni qondirishga intilgan bo'lishi uchun asoslar mavjud, chunki davlat-xususiy sheriklikning asosiy maqsadi aholi ehtiyojlarini davlat va ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etish orqali ta'minlashdir. Biroq bu fikrga ma'lum darajada shubha bilan qarash kerak. Bizningcha, shartnomaviy munosabatlarga kirishar ekan, avvalo sheriklar o'z shaxsiy (xususiy) manfaatlarini ko'zlaydilar. Shu munosabat bilan D.V. Kachkin va R.R. Repin ta'kidlaydilarki, ommaviy subyekt xususiy sherik bilan hamkorlik qilar ekan, u o'zini fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi shaxsiy manfaatini to'g'ridan-to'g'ri qondirishga intiladi. Ilgari tilga olingan ijtimoiy manfaat esa davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda o'zining bevosita ifodasini topmaydi. Shartnoma faqat uni qondirish uchun asos sifatida xizmat qiladi [15].

Darhaqiqat, ommaviy sherik davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga faqat o'z infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish uchun budjet mablag'lari yetarli bo'lmaganida

murojaat qiladi, ya'ni unga tashqaridan yordam talab etiladi. Shu bois, xususiy sherik bilan munosabatlarda u hokimiyat organi sifatida emas, balki fuqarolik huquqiy munosabatlar subyekti sifatida harakat qiladi. Bu esa munosabatlarning vertikallashuvini va ular orasidagi itoatkorlik munosabatlarini istisno qiladi.

Investor esa o'z navbatida, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishga mablag', tajriba va texnik yechimlarni kiritar ekan, munosib mukofot olishni kutgan holda harakat qiladi. Mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini qayta qurish loyihalarida xususiy sherik uchun ijtimoiy manfaat ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat ehtiyojlarini qondirish va aholiga ko'rsatiladigan tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish unga faqat qo'shimcha rag'bat sifatida xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadiki, davlat-xususiy sheriklik shartnomasi taraflari ko'proq o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydilar va ularning ustuvorligi davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning fuqarolik-huquqiy tabiatini ko'rsatib turuvchi birinchi va asosiy belgi hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning xususiy-huquqiy tabiatini tasdiqlovchi ikkinchi asos — bu yuzaga keladigan sheriklik munosabatlari asoslangan prinsiplardir. Ular shartnomaning mohiyati va mazmunini yaqqol ifoda etadi. Ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: sheriklarning teng huquqliligi, loyihaga ularning ixtiyoriy ishtirok etishi, raqobat va axborot oshkoraligi, o'zaro javobgarlik va xavf-xatarlarni adolatli taqsimlash, haq evaziga xizmat ko'rsatish va aralashmaslik tamoyillari [16].

Aniqki, keltirilgan prinsiplar fuqarolik huquqi va qonunchiligining asosiy prinsiplari bilan uyg'un va ko'p jihatdan mos keladi. Ilmiy adabiyotlarda bu prinsiplar fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish mazmunini belgilaydigan muhim konseptual qoidalar sifatida qaraladi. Masalan, taraflarning teng huquqliligi prinsipi fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi prinsipining bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Y.K. Tolstoyning ta'kidlashicha, fuqarolik-huquqiy munosabatda biron-bir taraf faqat o'z mavqeyi tufayli ikkinchi tarafning xulq-atvorini oldindan belgilab qo'yishi mumkin emas [17]. Demak, Davlat-xususiy sheriklik shartnomasi taraflari to'liq huquqli sherik sifatida faoliyat ko'rsatadilar va bir-birlariga nisbatan turli xil kamsitish, itoat munosabatlari yoki noqonuniy imtiyozlarga yo'l qo'ymaydilar [18].

Davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etishning ixtiyoriyligi taraflarning bir-biri bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish masalasini mustaqil hal qilishini nazarda tutadi [19]. Shuningdek, taraflar shartnoma shartlarini — uning predmetini, o'zaro huquq va majburiyatlarini, majburiyatlar mazmuni va h.k. — o'zlari belgilaydilar. Bu holat FKning 354-moddasida mustahkamlangan shartnoma erkinligi prinsipidan kelib chiqadi.

Raqobatni ta'minlash prinsipi mahalla binolarini qayta qurishga oid davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etish uchun potensial investorlarga teng imkoniyat berilishida o'z ifodasini topadi va bu jarayon ochiq tanlov asosida amalga oshirilib, eng munosib xususiy sherikni tanlab olish imkonini beradi. Axborot oshkoraligi prinsipi esa davlat-xususiy sheriklik loyihasi ishtirokchilarini davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlaridan himoya qilishga qaratilgan [20]. U ommaviy axborot vositalarida davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etish huquqi uchun tanlov jarayonining borishi va natijalarini, shuningdek shartnoma amalga oshirilishining ayrim bosqichlarini e'lon qilish majburiyatini o'z ichiga oladi. Bu xususiy sherik uchun ommaviy sherik tomonidan majburiyatlarni lozim darajada bajarishining bir turdagi kafolatidir, chunki aks holda ommaviy sherikning shartnoma

shartlarini jiddiy buzishi jamoatchilik e'tiboriga tushib qolishi mumkin. O'zaro javobgarlik prinsipi shundan iboratki, taraflar ehtimoliy noxush oqibatlar yuzaga kelganda qaysi taraf javobgar bo'lishini o'zlari belgilaydilar. Bunda manfaatlar muvozanati saqlanishi va hech bir sherik ortiqcha yuklanishga duchor bo'lmasligi lozim. Umumiy qoidaga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik shartnomasi taraflari ayb mavjud bo'lgan taqdirdagina (qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida) javobgar hisoblanadilar va agar o'zlarining aybsizligini isbotlay olmasalar, ularning huquqiy munosabatlariga FKning 24-bobi qoidalari tatbiq etiladi. A.V.Belitskaya ta'kidlaganidek, xavf-xatarlarni adolatli taqsimlash prinsipi ularni qaysi sherik samaraliroq yengib o'ta olishiga qarab taqsimlanishini nazarda tutadi. Oddiy hollarda ommaviy sherik siyosiy, valyuta va boshqa nazorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni, xususiy sherik esa tijorat, texnologik va boshqa xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi [21]. Xavf-xatarlarni noto'g'ri taqsimlash shartnoma shartlarini bajarish xarajatlarini oshirishi va bu o'z navbatida taraflar o'rtasida nizolar kelib chiqishi hamda ehtimoliy sud ishlariga olib kelishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasining haq to'lanishligi (haq evaziga) esa ommaviy sherikning loyihaga jalb qilingan xususiy sherikka sarflangan investitsiyalarini qoplab berish va shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda uning zararlarini qoplash majburiyatida namoyon bo'ladi [22]. Investor esa turli shakllarda (davriy to'lovlar, yakuniy iste'molchilardan haq olish va boshqalar) foyda olishga umid qiladi.

Aralashmaslik prinsipi investorning davlat-xususiy sheriklik shartnomasi amalga oshirilishi jarayonida ma'muriy, xo'jalik va boshqaruv qarorlarini mustaqil qabul qilishini nazarda tutadi [23]. Bu yerda gap ommaviy sherik xususiy sherikning operativ-xo'jalik faoliyatiga aralashish huquqiga ega emasligi haqida bormoqda, biroq u loyiha amalga oshirilish jarayoni va bajarilayotgan ishlar sifati ustidan nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lib qoladi.

Shu tariqa, davlat-xususiy sheriklik loyihasi amalga oshirilishi jarayonida yuzaga keladigan sheriklik munosabatlari asosan fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega. Shu sababli, ularga fuqarolik huquqining umumiy prinsiplari va asoslari qo'llaniladi. Shartnoma taraflari teng huquqli, o'z huquqlaridan erkin foydalanadilar va qonun doirasida o'z xulq-atvor modelini tanlaydilar. Ayrim mahalliy tadqiqotchilar ham shunday fikrda [24].

Ko'rib chiqilayotgan shartnomaviy konstruksiyaning uchinchi muhim belgisi — uning predmeti, ya'ni taraflarning aniq belgilangan harakatlarida (asosiy majburiyatlarida) ifodalanadi. Oddiy hollarda xususiy sherik obyektni qurish, rekonstruksiya qilish, shuningdek, uni ekspluatatsiya qilish va (yoki) texnik xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi. Bundan tashqari, u ushbu ishlar uchun sarf-xarajatlarni qisman yoki to'liq moliyalashtiradi. Ommaviy sherik esa o'z navbatida xususiy sherikka shartnoma obyektni egalik va foydalanish uchun topshiradi, ba'zi hollarda esa uni moliyalashtirishni va shartnoma bajarilgandan so'ng unga oid huquqlarni berishni ta'minlaydi.

Bu majburiyatlar kombinatsiyasi muayyan loyihaning ehtiyojlariga qarab turlicha bo'ladi. Shuning uchun davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim o'z ichiga turli fuqarolik-huquqiy shartnomaviy konstruksiyalarni qamrab oladi. Shu bois, unga fuqarolik qonunchiligi normalari, xususan, ijara, ko'chmas mulkni oldi-sotdi, qurilish pudrat shartnomalari, haq evaziga xizmat ko'rsatish, investitsiyaviy shartnoma va boshqa bitimlar to'g'risidagi qoidalar tatbiq etiladi.

Shu bilan birga, taraflar o'rtasida yuzaga keladigan investitsiyaviy munosabatlar alohida o'rin tutadi, chunki loyihani moliyalashtirish masalasi asosiy hisoblanadi. "Rossiya

Federatsiyasida investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunga ko'ra, investitsiya faoliyati kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan investitsiyalarni kiritish va foyda olish yoki boshqa foydali natijaga erishish maqsadida amaliy harakatlarni bajarishdan iboratdir. Kapital qo'yilmalar obyektlari esa yangi yaratilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan, davlat va munitsipal mulk hisoblanishi mumkin bo'lgan turli mol-mulk turlaridir. Qonunda investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasidagi munosabatlar Fuqarolik kodeksiga muvofiq shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Natija. Shu tariqa, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi shartnoma asosan fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi va uning xususiy-huquqiy tabiati quyidagilar bilan tasdiqlanadi:

Taraflarning erk bildirishi, eng avvalo, ularning shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilgan (investor uchun — foyda olish, ommaviy sherik uchun — obyektga nisbatan mulkdor huquqlarini amalga oshirish).

Sheriklik munosabatlari prinsiplari fuqarolik huquqining asosiy qoidalaridan kelib chiqadi (dispozitivlik, taraflarning tengligi, shartnoma erkinligi va boshqalar).

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasining tarkibiy qismi asosan fuqarolik-huquqiy shartnomaviy konstruksiyalardan iborat (pudrat, ijara, oldi-sotdi, haq evaziga xizmat ko'rsatish, investitsiya va boshqalar).

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasining predmeti mahalla fuqarolar yig'ini binolarini qurish kontekstida alohida aniqlik talab qiladi. Shartnoma predmeti sifatida nafaqat binolarning qurilishi, balki uning funksional maqsadi, texnik parametrlari, foydalanish tartibi va kelajakdagi ekspluatatsiya shartlari ham detal belgilanishi kerak. Mahalla fuqarolar yig'ini binosi ko'p funksional obyekt hisoblanib, unda ma'muriy ishlar, fuqarolarni qabul qilish, madaniy tadbirlar o'tkazish, ta'limiy mashg'ulotlar va boshqa ijtimoiy faoliyat turlari amalga oshiriladi. Shartnomada ushbu barcha funksiyalarning arxitektura va texnik talablari, har bir funksional zona uchun zarur bo'lgan texnik shart-sharoitlar va kommunikatsiya tizimlari aniq ko'rsatilishi lozim.

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari mahalla fuqarolar yig'ini binolarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Davlat sherigi sifatida ishtirok etuvchi uyushma mahalla fuqarolar yig'ini nomidan loyihaning umumiy strategik yo'nalishini belgilash, zarur ruxsatnoma va kelishuvlarni olish, loyihaning davlat standartlari va normalariga muvofiqligini nazorat qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Shuningdek, uyushma mahalla fuqarolar yig'inining loyihadagi manfaatlarini himoya qilish, loyihaning mahalliy ehtiyojlarga mosligini ta'minlash va aholi bilan muvofiqlashtirish jarayonlarini tashkil etish vazifalarini bajarishi kerak. G.I. Mirhalilova davlat-xususiy sheriklik sohasini huquqiy tartibga solishini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surgan: "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuniga davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida xususiy sherikka ko'rsatiladigan davlat tomonidan amalga oshiriladigan qo'llab-quvvatlash choralarining to'liq ro'yxati; davlat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalari va funksiyalari doirasida mavjud bo'lgan obyektlarga nisbatan davlat sherigining xususiy sherik oldidagi uzoq muddatli majburiyatlari; joriy va/yoki kelgusi budjet davrlarida to'lovlarni amalga oshirish [25]. G.I. Mirhalilova davlat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari doirasidagi obyektlarga nisbatan xususiy sherik oldida uzoq muddatli

majburiyatlarni aniq belgilashni taklif etadi. Bu taklif davlat-xususiy sheriklikning asosiy mohiyati — uzoq muddatli investitsion hamkorlik tabiatiga mos keladi. Biroq bu yerda konstitutsion-huquqiy va budjet-huquqiy cheklovlar inobatga olinishi shart. Davlat organlarining uzoq muddatli majburiyatlari: parlamentning budjet vakolatlarini cheklab qo'ymasligi; kelgusi budjet davrlaridagi diskretion siyosat yuritish imkoniyatini yo'qqa chiqarmasligi; davlatning suveren moliyaviy vakolatlariga zid bo'lmazligi lozim. Shu ma'noda ilmiy polemika nuqtai nazaridan, davlat sherigining majburiyatlarini "mutlaq va shartsiz" shaklda belgilash emas, balki shartli-moliyaviy kafolatlar modeli asosida mustahkamlash maqsadga muvofiq. Masalan, to'lov majburiyatlari budjet to'g'risidagi qonun bilan tasdiqlanishi sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.

Xususiy sherikning majburiyatlari mahalla fuqarolar yig'ini binolarining o'ziga xos talablarini qondirish yo'nalishida shakllantirilishi lozim. Xususiy sherik loyihalashtirish bosqichida mahalla fuqarolar yig'inining funksional ehtiyojlarini batafsil o'rganishi, mahalliy aholi va mahalla fuqarolar yig'ini rahbariyati bilan keng maslahatlashuvlar o'tkazishi, arxitektura yechimlarini mahalliy madaniy an'analar va iqlim sharoitlariga moslashtirishi majburiy. Qurilish bosqichida sifat standartlariga qat'iy rioya qilish, belgilangan muddatlarni saqlash, ekologik va texnik xavfsizlik talablarini bajarish xususiy sherikning asosiy majburiyatlari hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan keng qamrovli tahlil asosida shu xulosaga kelish mumkinki, mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini qayta qurish yoki rekonstruksiya qilish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik shartnomasi o'zining gibrid tabiatiga qaramasdan, asosan fuqarolik-huquqiy institut sifatida qaralishi lozim. Bunday xulosaning asosiy dalillari quyidagilar: taraflarning erk bildirishi eng avvalo ularning shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilganligi (investor uchun foyda olish, ommaviy sherik uchun obyektga nisbatan mulkdor huquqlarini amalga oshirish); sheriklik munosabatlari prinsiplarining fuqarolik huquqining asosiy qoidalaridan kelib chiqqanligi (dispozitivlik, taraflarning tengligi, shartnoma erkinligi va boshqalar); davlat-xususiy sheriklik shartnomasi tarkibiy qismining asosan fuqarolik-huquqiy shartnomaviy konstruksiyalardan iborat bo'lganligi (pudrat, ijara, oldi-sotdi, haq evaziga xizmat ko'rsatish, investitsiya va boshqalar).

Ushbu nazariy xulosa amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki fuqarolik-huquqiy tartibga solish mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini qayta qurish loyihalarida yuqori samaradorlik, moslashuvchanlik va taraflar manfaatlarining muvozanatli himoyasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur shartnomaviy konstruksiyaning ijtimoiy ahamiyati va ommaviy xarakteri shartnomaviy munosabatlarning maqsadini belgilagan bo'lsa-da, uning huquqiy tabiatini prinsipial ravishda o'zgartirmaydi va fuqarolik qonunchiligi doirasida samarali tartibga solinishini ta'minlaydi.

Mazkur tahlillar va xulosalardan kelib chiqib mahalla uyushmalarining davlat xususiy sheriklik bitimidagi ishtirokini aniqlashtirish uchun qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://ferghana.uz/site/view/news/>
2. Белицкая А.В. Государственно-частное партнерство: понятие, содержание, правовое регулирование: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. С 17.

3. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный)
4. Публично-частное партнерство в России и зарубежных странах: правовые аспекты / С.А. Белов, Е.В. Гриценко, Д.А. Жмулина и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, Н.А. Шевелевой. – М.: Инфотропик Медиа, 2015. С.13
5. Шорохов С.В. Концессионное соглашение как форма публичного управления: сравнительно-правовое исследование : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2009.С 11-12.
6. Сосна С.А. Концессионные соглашения. Теория и практика. М., 2002. С 46-48.
7. Сазонов В.Е. Государственно-частное партнерство в России и за рубежом: административно-правовое исследование : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2013. С 13.
8. Самоловов Д.А. Соглашение о государственно-частном партнерстве вопросы правовой квалификации // Актуальные проблемы российского права. 2015. № 4. С. 142.
9. Винницкий А.В. Публичная собственность. М. : Статут, 2013 С.248.
10. Публично-частное партнерство в России и зарубежных странах: правовые аспекты / С.А. Белов, Е.В. Гриценко, Д.А. Жмулина и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, Н.А. Шевелевой. – М.: Инфотропик Медиа, 2015. С.20.
11. Попондопуло В.Ф. Правовой режим предпринимательства. СПб., 1994. С.167.
12. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный) / Е.В. Гриценко, Е.А. Дмитрикова, А.К. Долгов и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, В.В. Килинкарлова. М. : Инфотропик Медиа, 2016.
13. Самоловов Д.А. Соглашение о государственно-частном партнерстве как гражданскоправовой договор // Имущественные отношения в Российской Федерации. 2015. № 8. С. 22.
14. Горшунов Д.Н. Интерес в частном праве: вопросы теории. Казань : Казанский государственный университет им. В.И. Ульянов-Ленина, 2005. С 73.
15. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный) / Е.В. Гриценко, Е.А. Дмитрикова, А.К. Долгов и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, В.В. Килинкарлова. М. : Инфотропик Медиа, 2016.
16. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный) / Е.В. Гриценко, Е.А. Дмитрикова, А.К. Долгов и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, В.В. Килинкарлова. М. : Инфотропик Медиа, 2016. С 13-14.
17. Толстой Ю.К. Принципы гражданского права // Правоведение. 1992. № 2. С. 49-53.
18. Батрова Т.А., Антропцева И.О., Воробьев Н.И., Шапкина Е.А., Пушкин А.В., Артемьев Е.В., Рузанов И.В., Канделаки Г.Г., Богатырева Н.В., Котухов С.А. Комментарий к Федеральному закону от 13 июля 2015 г. № 224-ФЗ “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (постатейный). СПС Консультант Плюс. 2016. С17.
19. Комиссарова Е.Г. Формально-логические аспекты понятия “правовая природа” // Вест. Пермского ун-та. Сер. “Юрид. науки”. 2012. № 2. С. 13.

20. Белицкая А.В. Комментарий к Федеральному закону от 13 июля 2015 г. № 224-ФЗ “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации”. М. : Юстицинформ, 2016. С 23.
21. Белицкая А.В. Комментарий к Федеральному закону от 13 июля 2015 г. № 224-ФЗ “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации”. М. : Юстицинформ, 2016. С. 26.
22. Аблаев И.М. Основные принципы государственно-частного партнерства в условиях модернизации российской экономики // Экономические науки, 2013. № 2 (99). С. 17.
23. Абдрахманов А.И. Государственно-частное партнерство как актуальный механизм посткризисного развития России // Проблемный анализ и государственно-управленческое проектирование. 2011. Т.1. № 3. С. 32.
24. Белицкая А.В. Правовое регулирование государственно-частного партнерства. М. : Статут, 2012. С 60-61.
25. Mirxalilova G.I. Davlat-xususiy sheriklikda xususiy sherik va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish muammolari. «Ekonomika i sotsium» №5(108)-2 2023 B.923.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).